

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2025
PEDAGOGIKA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

amaliy tajribalar.....	82
D.A.Djurakulova	
Chet tili universitetlarida mustaqil ta'lim samaradorligini belgilovchi psixologik va pedagogik omillar.....	87
A.R.Dilbarjonov	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida talabalarni intellektual faoliyatga tayyorlashda ijtimoiy sherikchilikning roli.....	92
N.B.Dusimbetova, S.D.Qayimova	
Jurnalistika ta'limida transmedia ko'nikmalarini rivojlantirish metodlari.....	95
M.Sh.Dehqonova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik tafakkurini mantiqiy masalalar yechish jarayonida rivojlantirish.....	99
B.Q.Qurbonova	
Oliy ta'limda inklyuziv muhitni shakllantirishning pedagogik va psixologik shart-sharoitlari.....	102
M.I.Madraximova	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini pedagogik amaliyot jarayonida rivojlantirish.....	106
Z.Q.Abdullayeva	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida talabalarda reflektiv tafakkurni rivojlantirish texnologiyasi.....	110
O.A.Васильченко	
Дирижерский жест как средство музыкального выражения в хоровом исполнении.....	114
S.R.Shermatova	
Oliy ta'lim jarayonida klasterli yondashuvdan foydalangan holda induktiv va deduktiv tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish metodlari.....	120
M.Nasritdinova	
Artpedagogik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning badiiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish samaradorligini aniqlashga qaratilgan diagnostik usulni amaliyotga tatbiq etish.....	124
D.Sh.Jo'raboyeva	
Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligiga qo'yiladigan zamonaviy talablar.....	129
U.I.Obidjanov	
Tabiiy fanlarni o'qitishda interaktiv metodlarning samaradorligi: tajriba-sinov natijalari.....	134
J.M.Otajonov	
Рефлексия как философский феномен связи личности и общества.....	139
M.A.Nurmatova	
Universal metakompetentlikning pedagogik asoslari va rivojlantirish imkoniyatlari.....	146
S.B.Tangirqulov	
Maxsus ta'lim tizimida zamonaviy o'zbek musiqiy tafakkur asosida nogironligi bo'lgan o'quvchilarning musiqa madaniyatini rivojlantirish istiqbollari.....	151
Z.N.Asqarova	
Integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning akt kompetensiyasini rivojlantirish.....	156
N.Sh.Rustamova	
Rus tilini chet tili sifatida o'qitishda og'zaki bo'lmagan kommunikativ kompetensiyani shakllantirish metodikasi (boshlang'ich bosqich).....	160



UO'K: 378.011.3-051:005.32

OLIY TA'LIMDA INKLYUZIV MUHITNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK SHART-SHAROITLARI

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ИНКЛЮЗИВНОЙ СРЕДЫ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL CONDITIONS FOR FORMING AN INCLUSIVE ENVIRONMENT IN HIGHER EDUCATION

Qurbonova Baxtixon Qo'chqarbayevna 

Farg'ona davlat universiteti professori, pedagogika fanlari doktori

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida inklyuziv ta'lim muhitini shakllantirish jarayonining pedagogik va psixologik jihatlarini yoritilgan. Inklyuziv muhitni yaratishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi ijobiy kommunikatsiya, tolerantlik, empatiya hamda psixologik qo'llab-quvvatlash muhim omil sifatida tahlil qilingan. Pedagogik shart-sharoitlar sifatida ta'lim jarayonini moslashtirish, o'quv dasturlarini diversifikatsiya qilish, innovatsion metodlardan foydalanish va o'qituvchilarning inklyuziv kompetensiyalarini rivojlantirish zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, psixologik jihatdan inklyuziv muhitda ijobiy psixologik iqlimni shakllantirish, talabalar o'rtasida o'zaro hurmat va hamkorlikni mustahkamlash masalalari ko'rib chiqiladi.

Аннотация

В статье рассматриваются педагогические и психологические аспекты формирования инклюзивной образовательной среды в системе высшего образования. Анализируются основные условия, обеспечивающие эффективное внедрение инклюзивного обучения: лично-ориентированный подход, развитие педагогической толерантности, эмпатии и позитивной коммуникации между преподавателями и студентами. Особое внимание уделено необходимости адаптации учебных программ, применению инновационных педагогических технологий и формированию профессиональных компетенций преподавателей в области инклюзии. Психологические аспекты рассматриваются через призму создания благоприятного психологического климата и укрепления взаимного уважения в студенческой среде.

Abstract

This article analyzes the pedagogical and psychological aspects of creating an inclusive environment in higher education institutions. The study highlights the importance of a learner-centered approach, positive teacher-student communication, empathy, and tolerance as key factors in establishing inclusion. Pedagogical conditions such as curriculum adaptation, flexible teaching strategies, and the development of teachers' inclusive competencies are emphasized. Psychologically, the article focuses on the formation of a positive educational climate, emotional support for students, and the promotion of cooperation and mutual respect among participants in the educational process.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, oliy ta'lim, pedagogik shart-sharoitlar, psixologik qo'llab-quvvatlash, empatiya, tolerantlik, inklyuziv muhit, innovatsion yondashuv

Ключевые слова: инклюзивное образование, высшее образование, педагогические условия, психологическая поддержка, эмпатия, толерантность, инклюзивная среда, инновационные методы.

Key words: inclusive education, higher education, pedagogical conditions, psychological support, empathy, tolerance, inclusive environment, innovation in teaching.

Kirish

Bugungi kunda ta'lim sohasida insonparvarlik va tenglik tamoyillariga asoslangan yondashuvlar global miqyosda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va BMTning "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi"da ta'kidlanganidek, har bir inson jismoniy yoki aqliy imkoniyatlaridan qat'i nazar ta'lim olish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasida ham inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylangan. Sh.M.Mirziyoyevning "Hech kim e'tibordan chetda qolmasin" [1] tamoyili, aslida, jamiyatda inklyuziv madaniyatni qaror toptirishga qaratilgan g'oya sifatida namoyon bo'lmoqda.

Oliy ta'lim tizimi esa bu borada asosiy uzviy bo'g'in bo'lib, u kelajak mutaxassislarining professional, ijtimoiy va insoniy qadriyatlarini shakllantiruvchi muhitdir. Shu sababli, oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv muhit yaratish nafaqat ta'lim sifati, balki butun jamiyatning ijtimoiy adolat tamoyillariga amal qilish darajasini ifodalovchi mezondir.

Inklyuziv muhitni barpo etish uchun esa pedagogik, psixologik, tashkiliy va axborot-texnologik sharoitlarning uzviy uyg'unligi zarurdir. Quyida ushbu omillar ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Inklyuziv ta'lim masalasi bugungi kunda jahon ta'lim tizimida eng muhim strategik yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Mazkur sohada olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, inklyuziv muhitni shakllantirish jarayoni faqat pedagogik yondashuvni emas, balki ijtimoiy, psixologik va madaniy omillarni ham o'z ichiga oladi.

Xalqaro tashkilotlardan biri UNESCO o'zining "Inclusive Education: The Way of the Future" nomli hisobotida inklyuziv ta'limni "ta'lim tizimining moslashuvchanligi va o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish qobiliyatini kuchaytiruvchi global jarayon" [2] sifatida ta'riflaydi. Ushbu yondashuvda asosiy urg'u "hamma uchun ta'lim" tamoyiliga berilgan bo'lib, u barcha toifadagi o'quvchilar uchun sifatli ta'lim imkoniyatlarini ta'minlashni nazarda tutadi.

T.Booth va M.Ainscow o'zlarining "The Index for Inclusion" asarida inklyuziv ta'limni tizimli o'zgarish jarayoni [6] sifatida izohlaydi. Ularning fikricha, inklyuzivlik nogironligi bo'lgan talabalarni oddiy ta'lim tizimiga joylashtirish emas, balki butun ta'lim tizimini madaniy va ijtimoiy jihatdan qayta qurishdir. Olimlar ta'lim muassasalarida "inklyuziv qadriyatlar"ni shakllantirish orqali barcha ishtirokchilar o'qituvchi, talaba va jamoa o'rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga ko'tarish zarurligini ta'kidlaydilar.

A.Florian esa inklyuziv pedagogika tushunchasini yanada chuqurroq tahlil qilib, quyidagicha fikr bildiradi "Inklyuzivlik talabani qayerda o'qitish masalasi emas, balki o'qituvchining uning ehtiyojlariga qanday munosabatda bo'lishidir." Bu qarash inklyuziv ta'limda o'qituvchi shaxsining markaziy o'rinda turishini ilmiy asoslaydi. Olimning fikricha, o'qituvchi o'z faoliyatida farqlarni muammo sifatida emas, balki imkoniyat sifatida ko'ra bilsa, haqiqiy inklyuziv muhit shakllanadi.

J.Ainsworth o'zining "Inclusive Pedagogy and Equity in Education" asarida inklyuzivlikni ta'limdagi madaniy o'zgarish jarayoni sifatida talqin etadi. Unga ko'ra, inklyuziv ta'limda xilma-xillik (diversity) bo'linish manbai emas, balki bilim va tajriba almashinuvi uchun boylik manbai hisoblanadi. Shu bois, oliy ta'lim tizimi inklyuziv yondashuvni joriy etish orqali ta'lim madaniyatining insonparvarlik darajasini oshiradi.

L.S.Vygotskiy esa inklyuziv ta'limning psixologik asoslarini tahlil qilib, shaxsning rivojlanishida ijtimoiy muhitning hal qiluvchi o'rni borligini ilmiy jihatdan isbotlaydi. U shunday yozadi "Shaxsning aqliy taraqqiyoti uning jamiyat bilan o'zaro ta'siri jarayonida shakllanadi. Alohida o'qitish emas, balki ijtimoiy integratsiya insonni rivojlantiradi"[3]. Bu nazariya inklyuziv ta'limning asosiy psixologik printsiplari belgilaydi ya'ni, ta'lim jarayoni har doim ijtimoiy muloqot va emotsional qo'llab-quvvatlash bilan birga borishi zarur.

G.Mamedova o'zining "Inklyuziv ta'lim psixologiyasi" asarida inklyuziv muhitda o'qituvchi shaxsining psixologik sezgirligi va empatik yondashuvi muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi. Uning fikricha "Inklyuziv ta'lim muvaffaqiyati, avvalo, o'qituvchining o'z talabalarining individual ehtiyojlarini anglash va ularga mos psixologik yordam ko'rsatish qobiliyatiga bog'liq" [4]. Bu fikr O'zbekiston oliy ta'lim tizimida o'qituvchilarning inklyuziv kompetensiyasini rivojlantirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

D.Shirinova o'z tadqiqotlarida inklyuziv muhitning ijtimoiy-psixologik ta'sirini o'rganib, quyidagicha xulosa qiladi: "Inklyuziv ta'lim jarayoni sog'lom va imkoniyati cheklangan talabalar o'rtasida ijobiy o'zaro ta'sir, empatiya, bag'rikenglik va ijtimoiy hamkorlik fazilatlarini rivojlantiradi" [5]. Shirinovaning tadqiqoti O'zbekiston sharoitida inklyuziv muhitning ikki tomonlama rivojlantiruvchi xususiyatga ega ekanligini ko'rsatadi ya'ni, u nafaqat maxsus ehtiyojli talabalarni, balki barcha o'quvchilarni ijtimoiy jihatdan boyitadi.

Olimlarning fikrlaridan kelib chiqib aytilish mumkinki, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida inklyuziv ta'limning rivoji uchun pedagogik-psixologik, tashkiliy va infratuzilmaviy asoslar bosqichma-bosqich yaratilmoqda. Shu bilan birga, ta'lim jarayonini xalqaro standartlarga moslashtirish,

PEDAGOGIKA

o'qituvchilarning malakasini oshirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish inklyuziv muhitni yanada samarali qiladi. Demak, oliy ta'limda inklyuziv muhitni shakllantirishning nazariy poydevori yetarlicha keng, ammo uning amaliy joriy etilishi uchun tizimli yondashuv, kadrlar tayyorlash va psixologik qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada rivojlantirish zarur.

TAHLIL VA NATIJALAR

Inklyuziv ta'limning muvaffaqiyati, avvalo, o'qituvchining metodik yondashuvi, dars jarayonining moslashuvchanligi va ta'lim infratuzilmasining inklyuzivlik darajasiga bog'liq. Quyidagi pedagogik omillar bu borada hal qiluvchi rol o'ynaydi:

1. Moslashtirilgan o'quv dasturlari. O'quv dasturlari har bir talabaga mos ravishda, individual o'zlashtirish sur'atlari va imkoniyatlariga qarab ishlab chiqilishi lozim. Masalan, vizual materiallar, audio darsliklar yoki soddalashtirilgan matnlar qo'llash orqali ta'limni samarali qilish mumkin.

2. O'qituvchilarning inklyuziv kompetensiyasi. Pedagogning professional tayyorgarligi nafaqat fan sohasidagi bilimlarga, balki psixologik sezgirlik, empatiya va tolerantlik darajasiga ham bog'liq. O'qituvchi inklyuziv muhitda "bilim manbai" emas, balki "rivojlantiruvchi hamkor" sifatida faoliyat yuritishi zarur.

3. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Interfaol metodlar, raqamli ta'lim vositalari va onlayn platformalardan foydalanish inklyuziv muhitda ta'limni yanada qulay va teng imkoniyatli qiladi. Masalan, sun'iy intellekt asosidagi o'quv tizimlari maxsus ehtiyojli talabalar uchun moslashtirilgan topshiriqlarni avtomatik tarzda taklif eta oladi.

4. Ta'lim infratuzilmasining inklyuzivligi. Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy kirish imkoniyati, liftlar, panduslar, maxsus kompyuterlar va ekran o'quv dasturlarining mavjudligi inklyuziv ta'limning moddiy asosidir.

Pedagogik shart-sharoitlarning kompleks amalga oshirilishi ta'lim sifatini oshirish bilan birga, ijtimoiy adolat va inson huquqlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Psixologik jihatdan inklyuziv ta'lim nafaqat o'qituvchining talabalarga bo'lgan munosabati, balki butun o'quv jamoasining axloqiy va emotsional iqlimi bilan belgilanadi.

Birinchidan, ta'lim muhitida tolerantlik va bag'rikenglik qadriyatlarini shakllantirish zarur. Bu orqali sog'lom va imkoniyati cheklangan talabalar o'rtasida ijobiy ijtimoiy muloqot, o'zaro hurmat va hamkorlik kuchayadi.

Ikkinchidan, psixologik maslahat xizmati har bir oliy ta'lim muassasasida faol ishlashi kerak. Bu xizmat talabalarining stress holatlarini kamaytirish, o'ziga ishonchni oshirish, yangi sharoitga moslashish va o'zini anglash jarayonlariga yordam beradi.

Uchinchidan, motivatsion qo'llab-quvvatlash tizimi muhim ahamiyatga ega. Talabalar o'zlarini qadrlangan va e'tirof etilgan his qilganlarida, ularning ta'limdagi ishtiroki ham faolroq bo'ladi.

To'rtinchidan, psixologik treninglar va o'zaro yordam guruhlarini tashkil etish, talabalar o'rtasida empatiya va o'zaro ishonchni kuchaytiradi.

Psixologik sharoitlar to'liq ta'minlangan muhitda talabalar o'z salohiyatlarini erkin namoyon etadi, bu esa ta'lim samaradorligining oshishiga olib keladi.

O'qituvchi inklyuziv ta'limda markaziy o'rin tutadi. U bilim beruvchi emas, balki o'quvchini ijtimoiy hayotga tayyorlovchi murabbiydir. Inklyuziv pedagogika shuni taqozo etadiki, o'qituvchi: talabalarining farqlarini to'siq emas, balki imkoniyat sifatida ko'rishi kerak; har bir talabaga nisbatan shaxsiy yondashuvni amalga oshiradi; empatiya, sabr-toqat va ijtimoiy mas'uliyat fazilatlariga ega bo'ladi; ijtimoiy adolat tamoyillarini shaxsiy faoliyatida namoyon etadi.

O'qituvchi shaxsining insonparvarlik, axloqiy yetuklik va kommunikativ madaniyat darajasi inklyuziv ta'limning muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omildir.

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'lim so'nggi yillarda bosqichma-bosqich rivojlanmoqda. Toshkent davlat pedagogika universiteti, Samarqand davlat universiteti, Farg'ona davlat universiteti va boshqa OTMlarda inklyuziv ta'lim markazlari faoliyat yuritmoqda.

Bu markazlar quyidagi vazifalarni amalga oshirmoqda: maxsus o'quv resurslarini yaratish (Braille alifbosidagi kitoblar, audio va video materiallar); psixologik maslahat xizmati tashkil etish; talabalar uchun mentorlik dasturlarini yo'lga qo'yish; o'qituvchilar uchun inklyuziv ta'lim bo'yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish.

Kelgusida inklyuziv ta'limni yanada rivojlantirish uchun raqamli ta'lim vositalarini keng joriy etish, xalqaro tajribalarni o'rganish, ta'lim jarayonini ijtimoiy sheriklik asosida tashkil etish zarur.

Inklyuziv ta'lim jamiyat taraqqiyoti, inson huquqlari va ijtimoiy barqarorlikning ajralmas qismidir.

Oliy ta'lim tizimida inklyuziv muhitni shakllantirish orqali: ta'limda tenglik va adolat tamoyillari mustahkamlanadi; shaxsning o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyati kengayadi; tolerantlik, hamjihatlik va insonparvarlik qadriyatlari jamiyatda chuqur ildiz otadi.

Inklyuziv ta'limning asosiy mohiyati shundaki ta'lim har kim uchun ochiq, ammo har kim uchun bir xil emas. Ya'ni, har bir shaxsga uning ehtiyoji, imkoniyati va qobiliyatiga mos imkoniyatlar yaratilgandagina haqiqiy ta'lim tizimi yuzaga keladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5270-sonli Qarori "Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida". — Toshkent, 2022.
2. UNESCO. Inclusive Education: The Way of the Future. — Paris: UNESCO Publishing, 2009.
3. Vygotsky, L.S. (1993). Collected Works, Vol. 2: The Fundamentals of Defectology. — New York: Plenum Press.
4. Mamedova, G. (2020). Inklyuziv ta'lim psixologiyasi. — Toshkent: TDPU nashriyoti.
5. Shirinova, D. (2021). Oliy ta'limda inklyuziv yondashuvning ijtimoiy-psixologik jihatlari// Ta'lim va Innovatsiyalar, №4.
6. Booth, T., & Ainscow, M. (2016). The Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools. — Bristol: CSIE.